



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 6-yanvar, № 2 (9173)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekistonning faol diplomatiyasi:

2025-YIL –

2025-yil O'zbekiston uchun sifat jihatdan yangilanish va tashqi siyosiy pozitsiyani mustahkamlash bosqichi bo'ldi. Geosiyosiy keskinlik kuchayib borayotgan, global institutlar transformatsiyasi, resurslar va bozorlar uchun raqobat kuchayib borayotgan murakkab hamda noaniq xalqaro vaziyat sharoitida O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ochiq, pragmatik, faol va tashabbuskor tashqi siyosat izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Biz va jahon

Aynan shunday yondashuv nafaqat tashqi aloqalarning barqarorligini saqlab qolish, balki ularga mamlakatning uzoq muddatli manfaatlarini va ichki rivojlanish vazifalariga mos keladigan yangi mazmun baxsh etish imkonini berdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonning diplomatik strategiyasi mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning

ajralmas qismi sifatida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, investitsiyalar, xorijiy sayyohlarni jalb etish, eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, gumanitar va madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Ochiqlik, teng huquqli sheriklik, o'zaro hurmat, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya qilish tamoyillari doimo tashqi siyosiy yo'lining asosini ifodalagan.

Dunyoning ko'zga ko'ringan yetakchilari bilan oliy darajadagi siyosiy muloqot yangi bosqichga ko'tarildi va muntazamlik kasb etdi. AQSh, Xitoy, Rossiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya va

JADAL MULOQOTDAN ANIQ NATIJALARGACHA

qator arab davlatlari rahbarlari bilan yangi kelishuvlarga erishildi. 2025-yilda davlat va hukumat rahbarlari darajasidagi ikki tomonlama uchrashuvlar soni 55 tadan oshgani xorijiy hamkorlar bilan o'zaro ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqori darajadagi faol siyosiy muloqotni rivojlantirish jarayonida ham shunga o'xshash tendensiya kuzatildi. Yil davomida O'zbekistonning yuqori darajadagi delegatsiyalari sayyoramizning deyarli barcha muhim mintaqalarini qamrab olgan holda dunyoning 93 davlatiga 172 ta tashrifni amalga oshirdi. Xalqaro kun tartibini to'ldirishda vazirliklar, idoralar va mintaqaviy ma'muriyatlarda vakillari ham muhim rol o'ynadi, ular diplomatik missiyalar ko'magida 50 dan ortiq mamlakatlarga 300 ga yaqin xizmat safarlarini amalga oshirdilar, bu esa tashqi aloqalarni amaliy yo'naltirilgan darajaga olib chiqish imkonini berdi.

O'zbekiston faol mezbon sifatida jahon diplomatiyasi markazlaridan biriga aylandi. Yurtimizda Parlamentlararo Ittifoq, BMT fuqarolik xizmati, YUNESKO

Bosh konferensiyasi, Xalqaro iqlim konferensiyasi, mintaq mamlakatlarining Toshkent sammiti va boshqa qator yirik anjumanlar tashkil etilgani ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Mamlakatimizda 120 dan ortiq yuqori darajadagi delegatsiyalar, xorijiy davlatlarning 300 ga yaqin mintaqaviy boshqaruv organlari delegatsiyalari bo'ldi. Ushbu muloqotlar hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, ishbilarmon doiralar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish va shartnomaviy-huquqiy bazani kengaytirishga xizmat qildi.

O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida Markaziy Osiyo an'anaviy ravishda alohida o'rin tutadi. 2025-yilda ushbu ustuvor yo'nalish yanada institutsional rivojlantirildi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida raislik qildi va u birinchi marta alohida kompleks dastur asosida amalga oshirildi. Uning doirasida iqtisodiy hamkorlik, transport bog'liqligi, ekologiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish va gumanitar almashinuv masalalari qamrab olindi.

Yigirmadan ortiq yirik

tadbirlarning o'tkazilishi va Toshkentda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan mintaq davlatlari rahbarlarining tarixiy sammiti mazkur diplomatiyaning yil yakuni bo'ldi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ishonchni chuqurlashtirish va birgalikda rivojlanishga intilishini tasdiqladi.

Bugun biz keng mintaqamiz uzoq vaqtdan buyon birinchi marta jahon siyosatining yaxlit, to'laqonli subyektiga aylanmoqda deb ishonch bilan ayta olamiz. Xalqaro hamjamiyatning e'tibori tobora ortib borayotgani, global maydonda mazkur hududga bo'lgan munosabat o'zgargani shundan dalolat beradi. "Markaziy Osiyo plyus" formatlarining rivojlanishi bunga yorqin misoldir, ular 2025-yilda yangi aniq amaliy mazmun bilan boyidi. Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, AQSh va Yaponiya bilan sammitlarning o'tkazilishi mintaqaning global siyosatdagi roli oshganini yaqqol ko'rsatdi hamda uning barqarorlik, bashorat qilish va o'zaro manfaatli hamkorlik makoni sifatidagi mavqeini mustahkamladi.



ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI ARXITEKTURASI

Mamlakatimiz yetakchisining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida kasblarni rivojlantirish hamda yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish davlat siyosatida to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi. Bu yondashuv mehnat bozorini tubdan isloh qilish, uni global tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish va inson kapitalidan samarali foydalanish zarurati bilan izohlanadi.

Munosabat

Bugungi kunda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish, turmush darajasini yuksaltirish va ishsizlikni kamaytirish masalalari ko'p jihatdan ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirishga bog'liq. Mehnat bozori malakali kadrlarni talab va taklif asosida tizimli ravishda taqsimlash hamda qayta taqsimlashni ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida shakllanib bormoqda.

Global transformatsiyalar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi va iqlim o'zgarishi mehnat bozorida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Bu jarayonlar O'zbekiston iqtisodiyotini

ham chetlab o'tayotgani yo'q. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish hamda an'anaviy tarzda past ish bilan ta'minlangan hududlarda ish o'rinlari yaratishda xalqaro tajriba va ichki imkoniyatlarimizdan keng foydalanishni talab qiladi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarmogda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtirilishi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinishi kutilmoqda.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

YANGILANAYOTGAN "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI – KELAJAGIMIZ ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab "Mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar yangilanayotgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.



Yig'ilishda partiya va uning parlamentdagi fraksiyasi a'zolari Strategiya loyihasini takomillashtirish bo'yicha o'z takliflari, tavsiyalarini berish bilan birga bu jarayonda faol ishtirok etishi, elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, aniq takliflar berishi lozimligi urg'ulandi.

Shundan so'ng fraksiya a'zolari "Qo'riqlash faoliyati takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.



FAKT VA RAQAMLAR

2026-yilda:



mahallalar qiyofasini yanada go'zal va obod qilish borasidagi ishlar tizimli davom ettiriladi, mahallalarni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv joriy qilinadi;

har bir viloyatda 2-3 tadan tumanni tanlab, ulardagi hamma mahallada barcha muammolarni bir vaqtning o'zida hal qiladigan tizim yaratiladi;

joriy yilda 544 milliard so'm ajratilib

tanlab olingan 33 ta tuman va sharoiti og'ir 330 ta mahalladagi ishlar ham shunday tashkil qilinadi;

bu yangi tajriba Urgut tumanidan boshlangan bo'lib, tumanda 100 ming aholiga mo'ljallangan zamonaviy ekoshahar bunyod qilinadi;

72 ta bog'cha, maktab, poliklinika, shuningdek, ichki yo'llar quriladi va ta'mirlanadi, kanallar beton bilan qoplanadi, 2 ta sel-suv ombori barpo etiladi;

ularda bir vaqtning o'zida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantiriladi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 8,5 trillion so'm mablag' ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

FAKT VA RAQAMLAR

2026 yilda:

deputatlarga oʻz okrugidagi muammolarni hal etish maqsadida 500 milliard soʻm,

har bir deputatga 3,3 milliard soʻmdan beriladi;

bu borada “yashil hudud”, “yashil bogʻ” yaratish boʻyicha

har bir deputatning tashabbusiga qoʻshimcha 330 million soʻm yoʻnaltiriladi;

bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha

barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi Oʻzbekiston qiyofasi olib kiriladi.

Shuningdek, bu ishlarni samarali tashkil qilish uchun tuman byudjeti daromadlarini kamida 2 karra koʻpaytirishga sharoit yaratib beriladi.

Shu maqsadda 2026-yil 1-yanvardan boshlab

qoʻshilgan qiymat soligʻidan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, bu mablagʻning yarmi tumanlar byudjetiga oʻtkaziladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

IKKI TOMONLAMA KELISHUVLAR IJROSI – PARLAMENT NAZORATIDA

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasida Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasida erishilgan ikki tomonlama kelishuvlarning ijrosiga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazildi.

Yigʻilish

Unda Oliy Majlis Senati hamda Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi aʼzolari, masʼul vazirlik va idoralar, uyushmalar, tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

Tadbirda Oʻzbekiston va Ozarbayjon davlat rahbarlari oʻrtasida erishilgan kelishuvlar, imzolangan ikki tomonlama hujjatlar hamda tasdiqlangan qoʻl xaritalari ning iroyi yuzasidan qator vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari eshtildi.

Muhokama davomida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiya, kooperatsiya loyihalarining ijrosini

jadallashtirish, transport-logistika, energetika, sanoat, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarida qoʻshma tashabbuslarni oʻz vaqtida va sifatli bajarish, masʼul vazirlik va idoralar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni yanada kuchaytirish, mavjud muammolarni hamkorlikda hal etish, kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini faollashtirish muhimligi alohida taʼkidlandi.

Majlis yakunlari boʻyicha Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasida erishilgan kelishuvlarning amaliy natijadorligini taʼminlash hamda ularni toʻliq roʻyobga chiqarishga qaratilgan tegishli qaror va tavsiyalar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI ARXITEKTURASI

Sanoatda avtomatlashgan ishlab chiqarish liniyalari, qishloq xoʻjaligida “aqlii” texnologiyalar, transport va logistika sohalarida intellektual boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda. Shu munosabat bilan Prezident mamlakat mehnat bozori kasb, malaka, texnologiya va taʼlimni birlashtiradigan yagona mexanizm asosida ishlashi zarurligini alohida taʼkidladi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston mehnat bozori oldida turgan asosiy vazifa – iqtisodiyot tarmoqlarida talab yuqori boʻlgan kasblar boʻyicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. Sanoat, qurilish, qishloq xoʻjaligi, transport, turizm, servis, AT va “yashil” energetika sohalarida amaliy koʻnikmalarga ega mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois kasbiy taʼlimni ish beruvchilar bilan chambarchas bogʻlash, dual taʼlim tizimini kengaytirish va yoshlarni oʻqish jarayonidayoq ish tajribasiga ega qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ayonki, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini rivojlantirish inson kapitalini samarali boshqarish bilan chambarchas bogʻliq. Taʼlim sifati, kasbiy qayta tayyorlash, raqamli va ijtimoiy koʻnikmalarni oshirish orqali ishchi kuchining raqobatbardoshligini kuchaytirish aholi daromadlari oʻsishi hamda turmush darajasi yuksalishiga xizmat qiladi. Ayni paytda hududlar oʻrtasidagi mehnat bozori nomutanosibligini kamaytirish, chekka hududlarda ish oʻrinlari yaratish va aholi mehnat mobiligini oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining muhim sharti hisoblanadi.

Oʻzbekistonda mehnat bozorini transformatsiya qilish iqtisodiyot tarmoqlarida talab yuqori boʻlgan kasblar boʻyicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, ayniqsa, sanoat,

qurilish, qishloq xoʻjaligi, transport, turizm, servis, AT va “yashil” energetika sohalarida amaliy koʻnikmalarga ega mutaxassislarni yetishtirish, kasbiy taʼlimni ish beruvchilar bilan chambarchas bogʻlab dual taʼlim tizimini kengaytirish, texnikum va koxoronal oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali yoshlarni oʻqish davrida ish tajribasiga ega mutaxassis sifatida shakllantirishni talab etadi. Shuningdek, raqamli mehnat bozorini shakllantirish va oliygoh bitiruvchilari hamda ish beruvchilarni bogʻlovchi yagona raqamli platforma yaratish orqali boʻsh ish oʻrinlari, mutaxassislar haqidagi maʼlumotlarni ochiq va shaffof qilish hamda taʼlim sifati, kasbiy qayta tayyorlash, sogʻliq va raqobatbardosh koʻnikmalarni oshirish bilan ishchi kuchining sifat koʻrsatkichlarini yanada yaxshilash maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yangi mehnat bozori arxitekturasida Oʻzbekistonda iqtisodiyot, taʼlim va mehnat munosabatlarini uygʻunlashtirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Mazkur islohotlar mehnat bozorini zamonaviy talablarga moslashtirish, yoshlar bandligini taʼminlash, aholi daromadlarini oshirish hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

Qonun ijodkorligi boʻyicha tajriba almashildi

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash masalalariga bagʻishlangan davra suhbatida oʻtkazildi.

Davra suhbatida

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 18 – 20-dekabr kunlari Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida oʻtkazilgan uchrashuvlar va erishilgan natijalar ikki tomonlama strategik hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqqani taʼkidlandi.

Parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, doʻstlik guruhlari va qoʻmitalar darajasida aloqalarni kengaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt sohasida qonun ijodkorligi boʻyicha tajriba almashish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Senatorial oʻz chiqishlarida “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida Tokio deklaratsiyasi qabul qilinganligi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, raqamli transformatsiya va taʼlim sohalarida strategik tashabbuslarni ilgari surishga xizmat qilayotganini taʼkidladi.

Davra suhbatida yakunida parlament diplomatiyasi mexanizmlaridan samarali foydalanish hamda “Oʻzbekiston – Yaponiya” parlamentlararo aloqalarini yanada faollashtirish borasida kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

Aks sado XALQ FAROVONLIGIGA QARATILGAN MUHIM HUIJAT

Soʻnggi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olgan izchil islohotlar, ochiq va pragmatik siyosat, inson manfaatlarini ustuvor qoʻygan davlat boshqaruv tizimi oʻz samarasini bermoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini qayta koʻrib chiqish vazifasining qoʻyilishi ana shu islohotlarni chuqurlashtirish va yangi tarixiy sharoitlarga mos ravishda davom ettirish zarurligidan dalolat beradi. Bu qaror mamlakat taraqqiyotida navbatdagi strategik bosqich boshlanayotganini anglatadi.

2023-yilda qabul qilingan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi qisqa vaqtda oʻzining amaliy samarasini koʻrsatdi. Iqtisodiy oʻsish surʼatlarining barqarorligi, ijtimoiy himoya tizimining kuchayishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi, tashqi savdo hajmlarining oshishi mamlakatda olib borilayotgan siyosatning toʻgʻri yoʻnalishda ekanini tasdiqladi.

Islohotlar markazida inson manfaatlari turgani kambagʻallik va ishsizlik darajasining sezilarli qisqarishi orqali namoyon boʻldi. Xususan, kambagʻallik darajasi 11 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 6,8 foizdan 4,9 foizga tushdi. Taʼlim qamrovining kengayishi, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi ham ana shu jarayonlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy koʻrsatkichlar ham strategiyaning real va pragmatik asosda ishlab chiqilganini yaqqol koʻrsatmoqda. Xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd. dollarga yetkazish boʻyicha avval 2030-yilga moʻljallangan maqsadga 2026-yilning oʻzida erishish kutilayotgani mamlakat iqtisodiy salohiyati toʻgʻri baholanganini anglatadi.

Kelgusi besh yilda iqtisodiyot hajmini 240 mlrd. dollardan oshirish imkoniyati mavjudligi haqidagi prognozlar esa Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga xalqaro maydonda ham ishonch yuqori ekanini koʻrsatadi. Bu, oʻz navbatida, investitsiyalar oqimini yanada kengaytirish, ish oʻrinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, dunyoda kechayotgan global oʻzgarishlar, raqamli iqtisodiyot va sunʼiy intellekt texnologiyalarining jadal rivoji, aholi sonining oʻsishi va yangi ijtimoiy ehtiyojlar “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini yangilashni taqozo etmoqda. Yangilangan strategiya nafaqat mavjud yutuqlarni mustahkamlash, balki kelgusi oʻn yillikda yuzaga chiqishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlarga tayyor turishni ham koʻzda tutadi.

Shu maqsadda 350 dan ortiq mutasaddi idora va ilmiy-tadqiqot markazlari vakillari ishtirokida 444 ta samaradorlik koʻrsatkichi qayta koʻrib chiqilmoqda. Bu esa har bir yoʻnalish boʻyicha aniq, oʻchab boʻladigan va natijaga qaratilgan vazifalar belgilab

olinayotganini anglatadi.

Strategiyaning yana bir muhim jihati – ijro intizomini kuchaytirish va shaxsiy javobgarlikni oshirish. Xususan, 60 ga yaqin davlat organlarining aniq masʼuliyati belgilab qoʻyilishi har bir vazifa uchun kim javobgar ekanini ochiq-oydin koʻrsatilishini taʼminlaydi. Bu esa davlat boshqaruvida tizimlilikni kuchaytirib, “masʼuliyatsizlik” omillarini keskin qisqartirishga xizmat qiladi.

Har bir maqsadni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan moliyaviy manbalarning aniq koʻrsatilishi strategiyani amalga oshirishda realik va shaffoflikni taʼminlaydi.

Strategiya doirasida tarmoqlar va hududlar kesimida ishlab chiqiladigan barcha rivojlanish dasturlarining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasiga moslashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Bu markaziy va mahalliy darajadagi islohotlar yagona maqsad va ustuvor yoʻnalishlar asosida olib borilishini taʼminlaydi. Eng muhimi, loyihaning keng jamoatchilik muhokamasiga qoʻyilishi davlat siyosatida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari izchil qaror topayotganini koʻrsatadi. Fuqarolar, ekspertlar, jamoatchilik vakillarining takliflari qaror qabul qilish jarayonida inobatga olinayotgani esa davlat va jamiyat oʻrtasidagi ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Yangilananayotgan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat bugungi muammolarga yechim, balki kelajak avlod uchun barqaror taraqqiyot poydevorini yaratishga ham xizmat qiladi. Unda belgilangan maqsadlarning ijrosi oʻz vaqtida taʼminlanishi davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishida muhim omil boʻladi. Shu bilan birga, Oʻzbekistonni mintaqada va xalqaro maydonda yanada raqobatbardosh, xalq farovonligi taʼminlangan zamonaviy davlatga aylantirishga xizmat qiladi.

OʻZLiDeP va uning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi aʼzolari Strategiya loyihasi takomillashtirish jarayonida faol ishtirok etib, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiy erkinlikni kengaytirish va xususiy sektor ulushini oshirish boʻyicha aniq takliflar bilan qatnashadi.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi OʻZLiDeP fraksiyasi rahbari.

Tadbir

Kun tartibida – oziq-ovqat xavfsizligi

Qishloq xoʻjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazida Oliy Majlis Senati, Qonunchilik palatasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti hamda Oʻzbekiston “Agrar soha ayollari” uyushmasi hamkorligida “Global iqlim oʻzgarishi sharoitida oziq-ovqat va mahsulotlar xavfsizligini taʼminlash orqali Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya boʻlib oʻtdi.

Tadbirda senatorlar va deputatlar, vazirlik va idoralar masʼullari, olimlar, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilari, xalqaro va nodavlat tashkilotlar vakillari, shuningdek, agrar sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ishtirok etdi.

Anjumanda global iqlim oʻzgarishining qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat tizimlariga taʼsiri, mahsulotlar xavfsizligini taʼminlashda ilm-fan va innovatsiyalarning oʻrni, barqaror agrotexnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Iqlim oʻzgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ayollarning agrar sohadaqi faolligini oshirish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish boʻyicha taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Tadbir yakunida bildirilgan fikr va mulohazalar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqiladigan boʻldi.

“Xalq soʻzi”.

YANGILANAYOTGAN “OʻZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI – KELAJAGIMIZ ASOSI

U qoʻriqlash faoliyati doirasini kengaytirishni, xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, koʻngilochar va qurilish obyektlarini qoʻriqlashni amalga oshirish boʻyicha huquqiy asoslarni belgilashni, shuningdek, Ichki ishlar vazirligining ushbu sohadagi vakolatlarini aniqlashtirishni nazarda tutadi.

Loyiha bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga tegishli oʻzgartirishlar kiritilib, Milliy gvardiya Qoʻriqlash bosh boshqarmasi mansabdor shaxslariga tegishli boʻlgan maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni koʻrib chiqish va maʼmuriy jazo qoʻllash vakolatlari Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qoʻriqlash departamenti mansabdor shaxslariga oʻtkazilmoqda.

Muhokama davomida fraksiya aʼzosi Diyor Husanov qonun loyihasining ahamiyatiga alohida toʻxtalib, uni takomillashtirish boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirdi. Shu bilan birga, loyihadagi ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berdi.

Qonun tashabbuskorlari mazkur masala yuzasidan tushuntirish berib oʻtishdi. Savol-javoblardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida Prezidentimizning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyatiga eʼtibor qaratildi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov Murojaatnomaning ahamiyati haqida gapirib, unda belgilangan eng muhim 6 ta ustuvor yoʻnalish ijrosi mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻlishini taʼkidladi.

Yigʻilishda “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar elektron tijorat rivojida ham salmoqli natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi elektron tijorat ishtirokchilari uchun zamonaviy logistika infratuzilmasiga ega milliy elektron tijorat makonini yaratish hamda bozor ishtirokchilarining manfaatlari himoyasi boʻyicha huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishni taqozo etyapti.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan qonun loyihasi bilan Soliq kodeksi hamda “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi Qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Jumladan, unda elektron tijorat sohasidagi isteʼmolchilar muomalasiga kirib borayotgan yoʻnalishlarga oid “yangi elektron savdo platformasi va buyurtmalar agregatori operatorlari”, “raqamli striming xizmati”, “elektron tijorat ishtirokchilari”, “transchegaraviy elektron tijorat” kabi atamalarga tushunchalar berilib, biznes jarayonlar va sohani soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilyapti.

Fraksiya aʼzosi Nodir Tilavoldiyev mazkur qonun loyihasiga munosabat bildirib, u nafaqat elektron tijoratni yanada rivojlantirishga qaratilganini, balki iqtisodiyotimizdagi yashirin aylanmalar hajmini qisqartirishga ham xizmat qilishini taʼkidladi.

Yigʻilishda qonun loyihasi yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berildi va muhokamadan soʻng ushbu hujjat qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi atroficha muhokama qilindi.

U elektron tijoratning shaffof va ochiq eko-tizimini yaratish, uning platformalari va servislarini jadal rivojlantirish, bu boʻyicha

munosabatlardagi iqtisodiy masalalarni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Loyihada elektron tijorat sohasidagi isteʼmolchilar muomalasiga kirib borayotgan yoʻnalishlarga oid “yangi elektron savdo platformasi va buyurtmalar agregatori operatorlari”, “raqamli striming xizmati”, “elektron tijorat ishtirokchilari”, “transchegaraviy elektron tijorat” kabi atamalarga tushunchalar berilib, biznes jarayonlari va sohani soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilyapti.

Muhokama davomida fraksiya aʼzosi Dilmurod Ismoilov qonun loyihasi yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Shuningdek, ayrim normalar boʻyicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Qonun tashabbuskorlari koʻtarilgan savollar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berib oʻtdi.

Muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Yigʻilishda Senatning “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga qoʻshimcha va oʻzgartirish kiritish haqida”gi qonunchilik taklifi ham koʻrib chiqildi.

Bu bilan sudyalikka nomzodlarni koʻrib chiqish tartibini takomillashtirish taklif etilmoqda. Qonun loyihasining qabul qilinishi parlament tomonidan sudyalik lavozimlariga malakali kadrlarni saylash jarayonlarini takomillashtirishga, nomzodlar ochiq va shaffof baholanishini taʼminlashga hissa qoʻshadi.

Fraksiya yigʻilishida kun tartibidagi boshqa masalalar ham atroficha muhokama etilib, ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida qoʻriqlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi keng muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, qoʻriqlash faoliyati

Joriy yilda yurtimizda ilk bor maktab oʻquvchilari oʻrtasida nufuzli xalqaro kimyo va informatika olimpiadalari oʻtkaziladi.

FAKT VA RAQAMLAR

2026
yilda:

tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha izchil siyosat davom ettirilib, asosiy soliq stavkalari oʻzgarishsiz qoldiriladi;

tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ ajratiladi;



kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion soʻm resurs beriladi;



shundan 43 trillion soʻmi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

Oʻzbekistonning faol diplomatiyasi:

2025-YIL – JADAL MULOQOTDAN ANIQ NATIJALARGACHA

Aloqalar geografiyasini yanada kengaytirish 2025-yildagi tashqi siyosatning muhim yoʻnalishi boʻldi. MDH, Yevropa va Osiyodagi anʼanaviy sheriklar bilan bir qatorda Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika va Janubiy Amerika mamlakatlari bilan aloqalar faollashdi. Slovakiya, Serbiya, Iordaniya, Paragvay va boshqa qator davlatlar bilan tarixda ilk bor oliy darajadagi ikki tomonlama tadbirlar oʻtkazilgani Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi ishtiroki izchil kengayib borayotganidan dalolat berdi. Natijada respublika diplomatik aloqalar olib borayotgan mamlakatlarning umumiy soni 165 taga yetdi.

Shu nuqtayi nazardan, 2025-yilda Oʻzbekistonning xalqaro hayotida mamlakatning tashqi siyosiy pozitsiyasiga strategik taʼsir koʻrsatgan voqealar alohida ahamiyat kasb etdi. Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimning imzolanishi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Bryusselga tashrifi YEI bilan munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilganini koʻrsatdi. Hujjat siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va barqaror oʻsish, “yashil” iqtisodiyot hamda raqamlashtirish sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi, shuningdek, yevropalik hamkorlar tomonidan Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga berilgan yuqori bahoning ifodasi boʻldi.

Jahonning asosiy kuch markazlari bilan hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish yoʻlini davom ettirgan holda Oʻzbekiston Amerika Qoʻshma Shtatlari bilan munosabatlarni izchil rivojlantirib kelmoqda. Noyabr oyida Vashingtonda AQSh va Markaziy

Osiyo mamlakatlari yetakchilarini birlashtirgan “C5+1” formatidagi sammitning muvaffaqiyatli yakunlari bu borada muhim voqea boʻldi. Oʻzbekistonning ushbu formatdagi roli xalqaro ekspertlar va siyosatchilar tomonidan mintaqaviy hamkorlikning asosiy tashabbuskori hamda AQShning barqaror rivojlanish, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalarida masʼuliyatli hamkori sifatida baholalanmoqda.

Oʻzbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi yigʻilishidagi ishtiroki ham muhim voqea boʻldi. Davlatimiz rahbarining bosh xalqaro minbardagi nutqi mamlakatimizning koʻp tomonlamalik, tinch muloqot va dolzarb global muammolarga birgalikda yechim topish tamoyillariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

2025-yilda Oʻzbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan mamlakatning barqaror rivojlanish, mintaqaviy xavfsizlik va gumanitar hamkorlik sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarini aks ettiruvchi toʻrtta rezolyutsiya qabul qilindi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston BMTning qator nufuzli organlariga saylangani xalqaro hamjamiyatning unga boʻlgan ishonchi ortib borayotganidan dalolatdir.

YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Samarqandda oʻtkazilgani yilning tarixiy voqeari sanaladi. Ushbu forum soʻnggi qirq yil ichida birinchi marta Parijdan tashqarida uyushtirildi, bu esa Oʻzbekistonning madaniy, tarixiy va sivilizatsiyaviy ahamiyatining misli koʻrilmagan eʼtirofi boʻldi. Samarqand bir necha kun davomida taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha global muloqot maydoniga aylanib, mamlakat tashqi siyosatining gumanitar yoʻnalishini hamda uning sivilizatsiyalararo hamkorlik markazlaridan biri sifatidagi imjini mustahkamladi.

Faol siyosiy diplomatiya bilan bir qatorda, 2025-yilda iqtisodiy diplomatiya jadal rivojlanib, tashqi siyosatning asosiy vositalaridan biri sifatida uzil-kesil qaror topdi. “Tashqi ishlar vazirligi – diplomatik vakolatxonalar – tarmoq idoralari – hududlar” shaklidagi tizimli ishlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi. Yilning oʻn oyida diplomatik missiyalar koʻmagida 34,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari tomonidan yuqori baholandi. 2025-yilda “Fitch Ratings” va “S&P” agentliklari Oʻzbekistonning suveren reytingini “BB-” darajadan “BB” darajaga koʻtardi, “Moody’s” agentligi esa prognozni “barqaror”dan “ijobiy”ga oʻzgartirdi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga boʻlgan ishonchning oʻsishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning barqarorligidan dalolat beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning faollashuvi tashqi savdo koʻrsatkichlarining oʻsishiga ham yordam berdi. 2025-yilning oʻn bir oyida tashqi savdo aylanmasi hajmi 72,7 mlrd. dollarni, eksport esa 30,8 mlrd. dollarni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,6 mlrd. dollarga oshdi. Tashqi savdoda salbiy saldoni sezilarli darajada qisqartirish diplomatik vakolatxonalarning bozorlarni diversifikatsiya qilish va mahalliy mahsulotlarni chiqarish ilgari surish boʻyicha maqsadli ishlarining natijasi boʻldi.

2025-yilda mamlakatning ijobiy xalqaro imjini shakllantirishda turizmning “yumshoq kuch” elementi sifatida rivojlanishi muhim rol oʻynadi. Oʻn bir oyda mamlakatga 10,7 mln. xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. Statistik

maʼlumotlarga koʻra, har oyda Oʻzbekiston bir milliiondan ortiq chet el fuqarolarini mehmon qiladi. Xalqaro koʻrgazmalarda faol ishtirok etish, xorijda keng koʻlamli taqdimot tadbirlari va Toshkentda “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi turizm forumining oʻtkazilishi Oʻzbekistonning mintaqadagi eng istiqbolli sayyohlik yoʻnalishlaridan biri sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi.

Oʻtgan yilda tashqi siyosatning muhim insonparvarlik oʻlchovi boʻlgan Oʻzbekiston fuqarolarining xorijdagi huquq va manfaatlarini himoya qilishga katta eʼtibor qaratildi. 2025-yilning yanvar – sentabr oylarida 385 mingdan ortiq konsullik harakatlari amalga oshirildi, noqonuniy olib qoʻyilgan hujjatlar qaytarildi, ish haqi boʻyicha qarzdorlik undirildi, vatandoshlarni Vatanga qaytarish dasturlari amalga oshirilmogʻda. Shu bilan birga, raqamli konsullik xizmatlari takomillashtirildi, Oʻzbekiston fuqarolari uchun vizasiz va soddalashtirilgan kirish geografiyasi kengaytirildi, diasporalar bilan hamkorlik mustahkamlandi.

Shunday qilib, 2025-yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, ishonch bilan aytish mumkinki, Oʻzbekiston tashqi siyosati yuqori darajadagi yetuklik, izchillik va natijadorlikni namoyish etdi. Mamlakat nafaqat xalqaro maydonda oʻz mavqeini mustahkamladi, balki ichki rivojlanishga koʻmaklashish, investitsiyaviy jumbojadorlikni oshirish va fuqarolarning turmush sifati yuksalish uchun diplomatik vositalardan ham foydalandi. Oʻzbekiston 2025-yilni kengaygan sheriklik tarmogʻi, mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza va kelgusi maqsadlarni aniq tasavvur qilish bilan yakunladi. Dunyo uchun ochiq va kelajakka ishonch bilan qaramoqda.

“Dunyo” AA.

FARMATSEFTIKA SOHASI TARAQQIYOTI

aholi salomatligini taʼminlash hamda milliy iqtisodiyotning oʻsishiga xizmat qilmoqda

Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi rahbari Abdulla AZIZOV bilan suhbat

Sarhisob

– Farmatsevtika – ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tarmoq. Shu bois mamlakatimizda ushbu sohaning rivojiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda mazkur tizimdagi oʻzgarishlar haqida nima deya olasiz? – Haqiqatan ham, farmatsevtika sohasi iqtisodiy oʻsish va aholi salomatligini taʼminlashda muhim strategik tarmoq hisoblanadi. Shu bois soʻnggi yillarda mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan tizimli va izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Avvalo, normativ-huquqiy baza tubdan takomillashtirildi. Dori vositalarini roʻyxatdan oʻtkazish, narxlarini tartibga solish, klinik tadqiqotlarni amalga oshirish hamda sifat nazorati boʻyicha xalqaro standartlarga mos mexanizmlar joriy etilyapti. Bu, oʻz navbatida, bozorda shaffoflikni taʼminlash, sifatsiz mahsulotlar savdosining oldini olishda muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratildi. Farmatsevtika klasterlari va ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarini tashkil etildi, investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berildi. Natijada mahalliy korxonalar tomonidan tayyorlanayotgan dori vositalari turlari koʻpayib, import oʻrni bosish darajasi oshib bormoqda.

Uchinchidan, aholini sifatli va hamyonbop dori vositalari bilan taʼminlash masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Referent narxlar tizimi qayta koʻrib chiqildi, retsept bilan beriladigan dori vositalari narxlari davlat tomonidan tartibga solinmoqda. Bu aholining dori-darmonga xarajatlarini qisqartirishga hissa qoʻshyapti.

Farmatsevtika sohasida amalga oshirilayotgan bunday islohotlar tarmoqning barqaror rivojlanishi, aholi salomatligini taʼminlash hamda milliy iqtisodiyotning oʻsishiga xizmat qilmoqda.

– 2024-yil 18-dekabr kuni Prezidentimiz “Tashkent Pharma Park” farmatsevtika klasteriga tashrifi chogʻida soha mutasaddilari va korxonalar rahbarlari bilan muloqot qilib, 2025-yilgi hamda istiqboldagi vazifalarni belgilab bergandi. Xususan, ishlab chiqarishni rivojlantirish, import dori larni mahalliy lashtirish va eksportni kengaytirish masalalari koʻtarildi. Oʻtgan bir yil davomida ayni yoʻnalishlarda qanday yutuqlarga erishildi? – Tan olish kerak, dori sanoati bundan

sakkiz-toʻqqiz yil ilgari mamlakatimizda eng sust rivojlanayotgan tarmoqlardan biri edi. Soha korxonalarining aksariyatida zamonaviy texnologiyalar umuman qoʻllanilmas, dori substansiyalari ishlab chiqarishga eʼtibor yetarli emasdi. Korxonalar toʻliq siklda mahsulot ishlab chiqarish oʻrniga, asosan, xorijdan tayyor mahsulotlarni olib kelib, qadoqlash bilan shugʻullanardi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev faoliyatining ilk davridanoq mazkur masalaga alohida ahamiyat qaratdi. Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirishni eng muhim yoʻnalishlardan biri etib belgiladi. Bu bejiz emas edi. Chunki sohada mahalliy ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻymay turib, aholini arzon, sifatli va kafolatlangan dori mahsulotlari bilan taʼminlash qiyin. Shuni hisobga olgan holda, davlatimiz rahbari dori substansiyalari ishlab chiqarishni keskin koʻpaytirish va toʻliq sikli ishlab chiqarishni kengaytirish, sohada xalqaro standartlar va yangi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish boʻyicha muhim vazifalarni belgilab berdi.

Ushbu yoʻnalishdagi topshiriqlar ijrosi bugun oʻz mevalarini bermoqda. “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri ana shu ishlarining amaliy natijalaridan biri. Bu yerda yuqori sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarish, malakali mutaxassislar tayyorlashga urgʻu qaratilgan.

Prezidentimiz topshiriqlari asosida olib borilayotgan ishlarga toʻxtaladigan boʻlsak, birgina 2025-yilda qoʻlga kiritilgan yutuqlarga eʼtibor qaratmoqchiman. Mazkur davrda tarmoq korxonalari tomonidan 6,3 trln. soʻmlik mahsulotlarni ishlab chiqarish, 250 mln. dollar eksport qilish hamda 120 mln. dollar (hududlar bilan jami 391 mln. dollar) xorijiy investitsiyalarni oʻzlashtirish vazifasi belgilangandi. Yilning yanvar – noyabr oylarida qiymati 6,0 trln. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. 2024-yildagiga nisbatan oʻsish – 121 foiz. 199,6 mln. dollarlik mahsulotlarni eksport qilindi, oʻsish – 125 foiz.

Investitsiya dasturi boʻyicha 134,2 mln. dollar mablagʻ oʻzlashtirildi (oʻsish 128 foiz), shundan xorijiy investitsiyalar hajmi 113,9 mln. dollarni tashkil etdi. Qiymati 85,5 mln. dollarlik 22 ta loyiha ishga tushirildi hamda mingdan ziyod ish oʻrinlari yaratildi.

“Tashkent Pharma Park” farmatsevtika klasterining sanoat zonasida umumiy qiymati 901,7 mln. dollarlik 28 ta loyiha amalga oshirilmogʻda.

Raqamlashtirish yoʻnalishida “pharm. gov.uz” platformasi, Zarur amaliyotlar



markazi – “GxP” davlat muassasasining inspeksiya nazorati tizimi, “PharmUz” mobil ilovasi hamda “Farmakonazorat” axborot tizimlari ishga tushirildi va 6 ta davlat tashkiloti bilan integratsiya amalga oshirildi.

– Ilm va innovatsiyasiz hech bir soha taraqqiy etmasligini ilgʻor mamlakatlar tajribasi isbotlagan. Yurtimizda farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirishda taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish uygʻunligini taʼminlashga qanchalik ahamiyat berilyapti?

– Darhaqiqat, ilm va innovatsiyasiz hech bir soha, ayniqsa, farmatsevtika tarmogʻi barqaror rivojlana olmaydi. Taraqqiy etgan davlatlarda farmatsevtika mahsulotlarining 60 – 70 foizi universitetlar, ilmiy markazlar va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlik natijasida yaratiladi. Yevropa Ittifoqida har bir yangi dori vositasi ortida oʻrtacha 10 – 12 yillik ilmiy tadqiqot va 1-2 mlrd. yevro investitsiya turadi. Demak, sohada raqobatbardoshlik ilmiy salohiyat bilan bevosita bogʻliq.

Yurtimizda ushbu sohani rivojlantirishda taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish uygʻunligiga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilmoqda. Agentligimiz tomonidan sohaviy oliy taʼlim muassasalari hamda agentlik qoshidagi ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyati muvofiqlashtirilib, ilmiy loyihalar portfeli shakllantirilmoqda va ular milliy hamda xalqaro grantlarga yoʻnaltirilmoqda.

Tarmoqni raqobatbardosh qilish, avvalo, inson kapitaliga bogʻliq. Shu maqsadda 2025-yilda 162 nafar mutaxassis farmatsevtika, biotexnologiya va klinik tadqiqotlar yoʻnalishlarida xorijiy taʼlim muassasalari va ilmiy markazlarda oʻqish hamda maqsadli malaka oshirishga yuborildi. Xususan, mazkur jarayonda Koreya Respublikasi, Singapur, Turkiya, Sloveniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Vengriyaning yetakchi universitetlari hamda ilmiy markazlari bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan. Olingan bilim va tajriba mahalliy ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etilmogʻda.

Farmatsevtikada ilmning iqtisodiy samara berishi uchun innovatsiyalarni amaliyotga olib chiqish muhim. Shu

maqsadda “PharmaNext” inkubatsiya va akseleratsiya dasturi orqali ilmiy gʻoyalari startaplarga aylantirilmoqda, yosh olimlarga biznes yuritish va sohaviy talablar boʻyicha amaliy koʻmak koʻrsatilmoqda. Shuningdek, “Tashkent Pharma Park” farmatsevtika klasteri doirasida ilmiy-tadqiqot, klinik tadqiqotlar va genom makazlarini tashkil etish orqali sohada toʻliq ilmiy-ishlab chiqarish ekotizimi shakllantirilmoqda. Bu yondashuv xalqaro klinik tadqiqotlarni Oʻzbekistonga jalb etish va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish uygʻunligiga asoslangan, aniq raqamlar va xalqaro hamkorlik bilan qoʻllab-quvvatlangan tizimli hamda natijaga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa milliy farmatsevtika

koʻtarsa, kimdir “Bu tizim shifokorlar uchun choʻntagini qappaytirishda yana bir “shans”. Korruptsiya yanada kuchayadi”, deya munosabat bildirmogʻda. Soha mutasaddilaridan biri sifatida bu fikrlarga qanday javob berasiz?

– “Elektron retsept” jahonning ilgʻor mamlakatlarida oʻzini oqlagan samarali tizim boʻlib, keng foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunda mazkur tizim mamlakatimizda ham bosqichma-bosqich joriy etilyapti. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad – davolash xavfsizligini oshirish va bemorlar salomatligini himoya qilish, shifokorlarning masʼuliyatini kuchaytirish, dori vositalarini tayinlash jarayonini tartibga solish, sogʻliqni saqlash tizimida raqamli hisobga oʻtish, shuningdek, kontrafakt yoki notoʻgʻri qoʻllanilayotgan dori vositalari aylanmasi bilan bogʻliq

Investitsiya dasturi boʻyicha 134,2 mln. dollar mablagʻ oʻzlashtirildi (oʻsish 128 foiz), shundan xorijiy investitsiyalar hajmi 113,9 mln. dollarni tashkil etdi. Qiymati 85,5 mln. dollarlik 22 ta loyiha ishga tushirildi hamda mingdan ziyod ish oʻrinlari yaratildi.

sanoatining uzoq muddatli barqaror oʻsishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

– Bugun jahon tibbiyotida bemorlarni davolashda kimyoviy dorilar bilan birga, tabiiy mahsulotlardan foydalanishga alohida urgʻu berilyapti. Yurtimizda dorivor oʻsimliklarni sanoat usulida yetishtirib, qayta ishlash boʻyicha qanday loyihalar amalga oshirilyapti?

– Dorivor giyohlarni yetishtirish va qayta ishlash mamlakatimizda sanoat darajasiga koʻtarilmogʻda. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida “BBU-Azamat” MCHJ tomonidan “Dorivor oʻsimliklarni yetishtirish va qadoqlashni tashkil etish” loyihasi ishga tushirilib, 20 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmogʻda. Bundan tashqari, Xoʻjayli tumanida “Eco-line roo” MCHJ tomonidan 400 gektarga qizilmiya dorivor oʻsimligi ekilgan boʻlib, 4,0 mln. dollarlik qizilmiya ilidzini chuqur qayta ishlash, dori vositalari uchun monoammoniy substansiyasi ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmogʻda.

– Dori mahsulotlarini sotishni toʻgʻri tashkil qilish ham dolzarb masalalardan biri. Shu maqsadda Toshkent shahri hamda 15 ta hududda dori vositalarini “Elektron retsept” asosida sotish tizimi joriy etildi. Bu yangilik aholi tomonidan turlicha qabul qilingani ham bor gap. Kimdir “Endi istagan dorini oʻzimiz xohlagan vaqtda dorixonaga borib sotib ololmaymiz” deb vahima

xavflarni kamaytirishdan iborat.

Bugungi kunda yurtimizda 11 825 turdagi dori turlari retsept asosida sotilmogʻda. Ularning 7 599 tasi xorijida ishlab chiqarilgan. Afsuski, hozirgi paytda mamlakatimizga chetdan dori vositalarini olib kirish va ularni sotish biznesga aylanib ketdi. Ushbu faoliyat bilan shugʻullanadigan kompaniyalar shifokorlar bilan kelishgan holda ishlashi ham sir emas. Buning mexanizmi oddiy: siz vrach qabuliga kirasiz, u esa faqat maʼlum dorixonalaridagina topiladigan dorilar roʻyxatini yozib beradi. Bu “noyob” dorilarni narxi baland boʻlishiga qaramay sotib olishga majbursiz. Bunday “tadbirkorlik” aholining haqli eʼtirozlariga sabab boʻlmogʻda.

Hozirgi kunda tarkibi bir xil, ammo turli nomlar bilan yurtimizga import qilinayotgan dorilar koʻp. Ularning aksariyati aynan Oʻzbekiston bozori uchun ishlab chiqarilayotgan boʻlib, boshqa mamlakatlarda uchramaydi. Xususan, hozirda qariyb 7,6 mingta import dori vositasidan 4,9 mingtasi referent mamlakatlar narx reestrinda mavjud emas. Yangi tizim yurtimizga import qilinayotgan dorilarning referent narxlarini shakllantirishda turli manipulyatsiyalarning oldini olishga ham hissa qoʻshadi.

Yangi tizimni joriy qilish davrida Sogʻliqni saqlash vazirligida vazir rahbarligida doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh tashkil etilgan. Ushbu guruh tarkibiga

shifokorlar, dorixona tashkilotlari va AKT mutaxassislari kiradi. Ishchi guruh tizimning amalda qoʻllanilishini muntazam monitoring qiladi, fuqarolar va tibbiyot xodimlarining murojaatlarini koʻrib chiqadi, poliklinikalarga tushayotgan yuklamani, raqamli servislarni barqarorligi va dori vositalarini berish tartibini tahlil etadi. Zarur hollarda tekzor tarzda tegishli tuzatishlar kiritadi.

Shifokor retseptsiz beriladigan hayotiy muhim dori vositalarining bazaviy roʻyxati shakllantirilgan. Bundan maqsad – kundalik va favqulodda maishiy holatlarda aholiga tekzor tibbiy yordam olish imkoniyatini taʼminlash. Roʻyxat xalqaro amaliyot, shifokorlar tavsiyalari va hayotiy holatlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda vazirlikning rasmiy axborot resurslarida eʼlon qilingan. Jarayonda ushbu roʻyxat dorilarning amaliy qoʻllanish natijalari va kelib tushayotgan takliflar asosida oʻzgartirilishi va toʻldirilishi mumkin.

“Elektron retsept” tizimi doirasida vujudga kelayotgan murojaatlarni qabul qilish uchun “Telegram”da “@ssv_pilot”bot tashkil etildi. Ushbu bot orqali ushbu tizim va dori vositalarini berish bilan bogʻliq barcha murojaat ustuvor tartibda koʻrib chiqilmogʻda.

Hozirgi kunda 1846 turdagi retseptsiz beriladigan dori vositalari davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan. Ularga shamollashga qarshi, isitmani tushirish, nazal spreylar, shamollash tufayli tanadagi ogʻriklarni bartaraf etish uchun ichiladigan bir komponentli dorilar, yosh bolalar uchun parasetamol yoki ibuprofen saqlagan suspenziyalar, siroplar, bel va boʻgʻimlardagi ogʻriqlarda ishlatiladigan surtmalar va gellar kiradi. Bundan tashqari, allergiyaga qarshi, ich ketishi va qabziqda qoʻllaniladigan dorilar ham retseptsiz sotiladi.

Retseptli va retseptsiz sotiladigan dorilar, ularning referent narxlari haqida agentligimizning rasmiy veb-sayti – “pharm.gov.uz”, shuningdek, “PharmUz” mobil ilovasi orqali maʼlumot olish mumkin.

Yana bir jihat. Yangi tizim asosida endilikda bemorlarning dori vositalaridan pala-partish foydalanilishi ham tartibga solinadi. Odamlar oʻziga oʻzi tashxis qoʻyib, dori xarid qilolmaydi yoki dorixona sotuvchilari oʻz bilganicha yoxud muayyan maqsadlarni koʻzlab xaridorlarga oʻzi xohlagan dorini taklif etolmaydi.

“Elektron retsept” tizimi yurtimizda davolash xavfsizligini taʼminlash, shifokorlarning oʻz qarorlariga javobgarligini oshirishda qoʻl keladi. Demak, sohada korruptsiyani kamaytirib, aholi manfaatlariga xizmat qiladi.

Dilshod KARIMOV
 (“Xalq soʻzi”) suhbatlashdi.

Soʻnggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi hamda umumiy generatsiyada “yashil” energiyaning ulushi 30 foizga yetdi.

2026 yilda:

FAKT VA RAQAMLAR

mahallalardagi aholini, xususan, xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, buning uchun zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha uch yillik dastur qabul qilinadi va uning ijrosi uchun

1 trillion so'm

mablag' yo'naltiriladi;

9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimi joriy qilinadi. Bunda oliygohlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi;

shu bilan birga,
2026-YILDAN BOSHLAB

HAR YILI KAMIDA
100 TADAN TEXNIKUMNI
TO'LIQ TA'MIRLAB,
TEKNOLOGIK VA TALAB
YUQORI BO'LGAN KAS-
BLARGA
MOS HOLDA JIHOZLAB
BORILADI;

GERMANIYA, SHVEYSARIYA,
BUYUK BRITANIYA, XITOY,
JANUBIY KOREYA KABI
DAVLATLARNING ILG'OR
TALIM DASTURLARI JORIY
QILINGAN
TEKNIKUMLAR SONI
100 TAGA
YETKAZILADI.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

UYG'OOQ QALBLARGA ISHONCHLI DA'VAT

Xabaringiz bor, 2025-yil yakuni arafasida davlatimiz rahbari Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnoma yo'llab, o'tgan vaqt davomida qilingan ishlar sarhisobi hamda oldimizda turgan vazifalar borasida so'z yuritdi. Ko'ngillarga ishonch bag'ishlagan, umid urug'larini qadagan, shu bilan birga, katta mas'uliyat yuklagan ushbu da'vat xalqimiz qalbidagi ulkan aks sado berdi, desak, mubolag'a emas. Murojaatnomada mamlakatimiz kelajagi va xalqimiz umidi hisoblangan yoshlarga qarata aytilgan fikrlar ham ularning yuraklarini to'lqinlantirdi, olg'a odimlash uchun yanada kuch-g'ayrat baxsh etdi.

Fikr

Navqiron avlod uchun tarixiy chorlov

Avazbek ARABBOYEV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi:



– Yurtboshimiz tomonidan Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llangan navbatdagi Murojaatnoma mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy voqea bo'lib, unda kelgusi taraqqiyot yo'nalishlari, ustuvor

vazifalar va islohotlarning yangi bosqichi aniq belgilab berildi.

Murojaatnoma mazmuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, parlament faoliyati va jamiyatni yuksaltirish masalalarini qamrab oldi. Prezidentimiz parlament faoliyatiga alohida to'xtalib, qonun ijodkorligi sifatini oshirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va xalq bilan muloqotni yanada mustahkamlash zarurligini ta'kidladi. Bu talablar Oliy Majlis faoliyatini faqat qonun qabul qiluvchi emas, balki islohotlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

E'tibor qaratilgan muhim yo'nalishlardan

biri – korrupsiyaga qarshi kurash masalasi. Davlatimiz rahbari bu borada aniq va qat'iy pozitsiyani bildirib, "Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir!" deya qayd etdi.

Biz, Yoshlar parlamenti a'zolari Murojaatnomada belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarni tengdoshlar orasida keng targ'ib etish, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirishga hissa qo'shishni o'z oldimizga muhim vazifa sifatida belgilab oldik. Navqiron avlodni halollik, mas'uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish yo'lida yosh targ'ibotchi sifatida hamisha oldinda bo'lamiz. Chunki Yurtboshimiz belgilab bergan bu tarixiy vazifalar faqat davlat idoralari emas, balki butun xalqimiz, ayniqsa, bizning ishtirokimizda ro'yobga chiqajak.

Yangi O'zbekistonning ertasiini qurishda faol kuch

Gulbahor ABDUKARIMOVA,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi:

– Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi mamlakatimizning iqtisodiy barqarorlik, tashqi ochiqlik va inson kapitaliga tayangan holda yangi taraqqiyot

bosqichiga kirib borayotganini yaqqol namoyon etdi.

Prezidentimiz nutqida iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka alohida urg'u berildi. So'nggi yillarda yurtimiz ochiq va o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi investitsiya kelishuvlari, strategik sherikliklar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik ana shu siyosatning amaliy natijasi, desak, adashmaymiz.

Shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, qo'shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlarni rivojlantirish hamda global maydonda faol diplomatik ishtirok etish mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Bu jarayonlarning uzoq muddatli samarasi, avvalo, navqiron avlod bilan chambarchas bog'liq. Bilimli, tashabbuskor va global fikrlaydigan yoshlar jonajon diyorimizning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy kuchdir. Shu ma'noda, ularning siyosati iqtisodiy va tashqi siyosiy strategiyaning uzviy davomi sanaladi.

Yoshlar parlamenti a'zosi sifatida bizning asosiy vazifamiz Yurtboshimiz belgilab bergan ustuvor yo'nalishlarni yig'it-qizlar orasida keng targ'ib etish, ularning bilim va salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tashabbuslarni ilgari surish hamda yoshlarni mamlakat taraqqiyotiga daxldor, faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishdan iborat. Aynan shunday yondashuv orqali uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ular bilan birga barpo etamiz.

Yoshlar parlamenti rivojida muhim qadam

Nurmuhammadxon MUHITDINOV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentining "Faollar jamoasi" a'zosi:
– Mamlakatimiz yetakchisining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi tom ma'noda qalblarimizni to'lqinlantirdi, shuningdek, zimmamizga katta mas'uliyat ham yukladi.



Murojaatnoma nafaqat oldimizdagi yillariga mo'ljallangan rejalaridan iborat hujjat, balki davlatimiz taraqqiyotining aniq "Yo'l xaritasi" bo'ldi.

Davlatimiz rahbari unda joriy yil qonunchilik va sud-huquq tizimi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlab, parlament zimmasiga olishi kerak bo'lgan muhim vazifalarni belgilab berdi. Islohotlar natijasida jamiyatda parlament faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ortib, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali taraqqiyot sur'atlarini tezlashtirish maqsad qilib qo'yildi.

Bu jarayonda biz, yoshlar, ayniqsa, Yoshlar parlamenti a'zolarining o'rni katta. Biz Murojaatnomada belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq qilish, aholiga keng tushuntirish ishlarini olib borish, yangi g'oya va tashabbuslar bilan islohotlarga munosib hissa qo'shishda davom etamiz.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

"Asia Trans Gas":

BARQAROR RIVOJLANISH, XAVFSIZLIK VA XALQARO HAMKORLIK YO'LI

2008 yilda O'zbekiston – Xitoy energetika hamkorligi doirasida tashkil etilgan "Asia Trans Gas" qo'shma korxonasi mintaqaviy gaz-transport tizimining muhim bo'g'ini va o'zaro manfaatli sheriklikning yorqin namunasiga aylandi. "O'zbekneftgaz" AJ va "Trans-Asia Gas Pipeline Company Limited" (TAPLINE) o'rtasidagi ishonch hamda strategik hamkorlikka tayanib kompaniya tabiiy gazning ishonchli tranzitini ta'minlash va keng ko'lami xalqaro loyihalarni amalga oshirish vazifasini izchil bajarib kelmoqda. Yillar davomida "Asia Trans Gas" mintaqaning energetik barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib, ikki tomonlama hamkorlikning yetakchi ishtirokchisi sifatida o'zini namoyon etdi.

O'zbekiston hududidagi magistral gaz quvuri yo'lasi Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari orqali o'tib, nafaqat hududlarni, balki minglab insonlar taqdirini bog'lab kelmoqda. "Asia Trans Gas" faoliyati mahalliy aholi uchun barqaror rivojlanish manbaiga aylandi: 600 ga yaqin doimiy ish o'rinlari va 10 mingdan ortiq bilvosita bandlik imkoniyatlari hududlarning iqtisodiy asosini mustahkamladi, oilalar uchun barqaror daromadni ta'minladi hamda kompaniya joylashgan hududlarning uyg'un rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Ekologiya va «yashil» taraqqiyot yo'li

Inson va tabiat uyg'unligi tamoyiliga amal qilgan holda, "Asia Trans Gas"

ekologik tashabbuslarni izchil amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunda gaz quvuri trassasi bo'ylab 220 ming kvadrat metrdan ortiq somonli to'siqlar ko'chma qumlarni ushlab turuvchi tabiiy qalqon vazifasini bajarmoqda. Mahalliy o'simliklarni ekish bilan uyg'unlashgan ushbu chora-tadbirlar chang hosil bo'lishini 30 foizdan ortiqqa kamaytirish imkonini berdi. Qayta tiklangan yerlarda 30 mingdan ortiq daraxt va butalar – qayrag'och, jiyda va saksovl ekilib, ular har yili qariyb 370 tonna uglerodni o'zlashtirib, hayot va barqarorlikning "yashil belbog'i"ni hosil qilmoqda.

Ekologik samara texnologik yechimlar orqali ham mustahkamlanmoqda. Kompressor uskunalarni optimallashtirish

yiliga taxminan 15 mln. kub metr gazni tejash va tashish hajmini yana 30 mln. kub metrga oshirish imkonini beradi, bu esa SO₂ chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan "Yashil belbog'" loyihasi Navoiy va Buxoro viloyatlari ekologiya idoralari tomonidan e'tirof qilindi hamda O'zbekiston va Xitoyning ekologik sivilizatsiyani shakllantirish borasidagi qo'shma sa'y-harakatlarini aks ettiruvchi muvaffaqiyatli xalqaro "ESG-keys" sifatida tan olindi.

Komplayens va halol boshqaruv madaniyati

"Asia Trans Gas"ning barqaror yutuqlari zamirida xalqaro standartlarga muvofiq qurilgan zamonaviy boshqaruv tizimi yotadi. Kompaniya shaffoflik, mas'uliyat va halol biznes yuritish madaniyatini izchil shakllantirib kelmoqda. Ushbu tamoyillar uzoq muddatli taraqqiyot va barqarorlik uchun mustahkam ishonch poydevoriga aylandi.

Qayd etish joizki, "Asia Trans Gas" O'zbekistonda birinchi bo'lib ISO 37301



sertifikatini qo'lga kiritib, muvofiqlik tizimining xalqaro standartlarga javob berishini rasman tasdiqladi. Korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida 20 dan ortiq ichki qoidalar ishlab chiqildi, 3 mingdan ortiq lavozim tavsiflari tahlil qilindi va darajalar bo'yicha tasniflangan korrupsiya xavfi xaritasi tuzildi. Barcha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi bandlar joriy etilgan bo'lib, qoidabuzarliklar uchun shaffof sanksiyalar, jumladan, shartnomani bekor qilish shartlari belgilab qo'yildi.

Ushbu tizimli ishlar xalqaro miqyosda ham e'tirof etildi: 2025-yilda "Asia Trans Gas" sifatini boshqarish, mehnatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik bo'yicha ISO 9001, ISO 14001 va ISO 45001 standartlari asosida "TUV" xalqaro "Oltin sertifikat"ini qo'lga kiritdi.

Xavfsizlik – oliy qadriyat

"Asia Trans Gas" uchun inson hayoti va atrof-muhit xavfsizligi so'zsiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Kompaniya xodimlar uchun o'quv mashg'ulotlari, amaliy tadbirlar va tanlovlar o'tkazish orqali xavfsiz

ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirib kelmoqda.

2025-yilda "Yong'in xavfsizligi uchun dolzarb 30 kun" tashabbusi amalga oshirilib, Buxoro magistral gaz quvurlarini boshqarish bo'limi obyektlarida yong'in xavfini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar o'tkazildi. Ushbu ishlar natijasida "uchta nol" konsepsiyasi – million kilometr tashishda jarohatlar, mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq shikastlanishlar va o'lim holatlarining nol darajasiga erishildi.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish

Kompaniya faoliyati ichki loyihalar bilan cheklanib qolmay, xalqaro tashabbuslarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Oktyabr oyida Buxoro shahri "CNPC"ning "Bir makon, bir yo'l" xalqaro kasbiy mahorat musobaqasiga mezbonlik qildi. Unda olti davlatdan kelgan 80 nafardan ortiq mutaxassislar o'z bilim va tajribasini namoyon etdi.

Musobaqaning yuqori saviyada uyushtirilgan "CNPC" tomonidan alohida e'tirof etildi.

Ijtimoiy mas'uliyat – kelajakka sarmoya

"Asia Trans Gas" strategiyasida ijtimoiy mas'uliyat alohida o'rin tutadi. Kompaniya ta'lim, ijtimoiy himoya va mahalla infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Jumladan, ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun o'quv jihozlari Ijtimoiy himoya milliy agentligiga topshirildi, "Mahalla kutubxonasi" loyihasi doirasida mahalla kutubxonalari kitoblar bilan boyitildi, oliy ta'lim muassasalari uchun zamonaviy o'quv va multimedia uskunalari taqdim etildi.

Umuman olganda, "Asia Trans Gas" faoliyati iqtisodiy o'sish, ekologik majburiyatlar va institutsional mustahkamlanishni uyg'unlashtirgan muvozanatli rivojlanish modelini namoyon qilmoqda. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ustuvor yo'nalishlariga tayangan holda, kompaniya barqaror rivojlanish tamoyillari va xalqaro boshqaruv standartlarini kundalik amaliyotga izchil joriy etib, mamlakat va butun mintaqaning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotganini isbotlamqda.

"Asia Trans Gas" MCHJ QK
matbuot bo'limi.

Shu yildan boshlab texnikumlarda ta'lim olayotgan 100 ming o'quvchiga ilk bor stipendiya to'lanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyatiga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nashrbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.00 Topshirildi – 23.55

1 2 3 4 5 6